

TUPROQNING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Azilov Xursand Gulmon o'g'li.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya; *Ushbu maqolada hozirgi kunda insonlarning tuproqqa bo'lgan munosabati va tuproqning odamlar hayotida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirildi.*

Kalit so'lar; *Tuproq, litosfera, tirik, organizmlar, yer, tabiiy, dehqonchilik, sug'oriladigan, faoliyati, iqlim, resursalar, o'simliklar, ildiz, maydoni, relyefi, biologik, pestitsidlar, kasallik, almashlab ekish, kimyoviy, monokultura, samaradorlik.*

Tuproq deb litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta'sirida o'zgarishidan shakllanadigan va genetik jihatdan o'zaro bog'liq gorizontlardan tashkil topgan tabiiy tuzilma bo'lib yer po'stining yuzasi bo'lgan unumdor qatlamiga aytiladi. Qadimda yashagan odamlar to'la-to'kis tabiatga bog'liq bo'lganlar. Chunki ular hech narsani o'z qo'llari bilan yaratmasdan, atrofida bor ne'matlarni iste'mol qilib yashagan. Yog'in-sochin, sovuq va yovvoyi hayvonlardan g'orlarda bekinib jon saqlaganlar. Asta-sekin ular ov va mehnat qurollarini o'ylab topishganlar va olovdan foydalanishni o'rganishgan. Natijada ularning turmushi yengillasha borgan. Shunga ko'ra tabiatni o'rganish, undan foydalanish va unga ta'sir ko'rsatish boshlangan. Vaqt o'tishi bilan dehqonchilikning yuzaga kelishi, yerdan unumli foydalanish, ekin ekib undan mo'l hosil olish oqibatida tuproqning odamlar hayotidagi ahamiyati keskin kuchayib ketgan.

Insonlar o'zi uchun zarur bo'lgan barcha oziq mahsulotlari va ko'plab boshqa vositalarni bevosita yoki bilvosita tuproqdan oladi. Yer yuzidagi hozirgi mavjud tuproq qatlami jamiyat taraqqiyoti natijasida kuchli o'zgarishga uchragan. Insoniyat tarixi davomida 2 mlrd. dan ortiq unumdor tuproqli yerlar yaroqsiz holga keltirilgan. Har yili sayyoramizdagi qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydoni sho'r bosishi, emirilishi natijasida 5-7 mln.gektarga kamaymoqda. Tuproqlarga inson ta'sirining kuchayishi sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi bilan bog'liq. Yer yuzi tuproq qatlamining hozirgi holatiga kelishi birinchi navbatda odamlarning faoliyati bilan belgilanadi. Insonlar tuproqlarga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tuproqlarning hosildorligini oshirishi, yerlarning holatini yaxshilashi mumkin. Shuning bilan birga shahar qurilishi, atrof muhitning ifloslanishi, agrotexnik tadbirlarning talabga javob bermasligi natijasida tuproqlar bevosita yo'q qilinishi, yaroqsiz holga keltirishi ham mumkin.

Tuproq o'zining kelib chiqishi bilan boshqa tabiiy jismlardan farq qiladi. V.V.Dokuchayev keltirib o'tishiga qaraganda, yer yuzidagi barcha tuproqlar mahalliy iqlim o'simlik va hayvonot organizmlari, ona tog' jinslarining tarkibi va tuzilishi, maydonning relyefi va biologik yoshi kabilarning murakkab ta'siri natijasida hosil bo'lgan.

P.A.Kostyachev tuproqning hosil bo'lishida biologik omillar, ayniqsa o'simliklar olami roliga alohida e'tibor beradi va «Tuproq deb, o'simliklarning ildizlari chuqur kirib boradigan yer yuzasining ustki qatlamini tushunish kerak» degan.

Tuproq o'zining mavjudligi bilan inson va boshqa tirik organizmlar uchun hayot imkoniyatini beradi. Tuproq va inson bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Insoniyat sivilizatsiyasining birinchi samarali texnologiyalari qishloq xo'jaligi va chorvachilik bo'lganligi ajablanarli emas - bu aslida yer resurslaridan foydalanishning maksimal usullari.

O'zbekiston juda ham boy yer resurslarga ega. Lekin shu kungacha ulardan samarali foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

O'zbekiston qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yer resurslarining 95 foizi va suv resursarining 85 foizi ishlatiladi. Sug'oriladigan yerlar umumiy yer fondining 15 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda mavjud sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig'i sho'rlangan. Ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi Buxoro va Sirdaryo viloyatlari tuproqlari kuchli sho'rlangan bo'lib tuproqlardagi chirindi miqdori 30-50 foizgacha kamaygan. Tuproqlarning pestitsidlar bilan ifloslanish darajasi ham juda yuqori. Bunday vaziyatning asosiy sabablaridan biri, uzoq vaqt davomida paxta monokulturasini hukmronligidir. Oxirgi yillarda paxta maydonlarining kamayishi, almashlab ekishning kengroq joriy qilinishi, mineral o'g'itlarni ishlatilishining me'yorlashtirilishi va boshqa tadbirlar tuproqlar holatining yaxshilanishiga olib kelmoqda. Tuproq unumdorligini oshirish dolzarb muammodir, chunki ko'pincha bog'bonlarning o'zi tuproqni yomon holga keltirib qo'yadi. Misol uchun, ular daraxtdan to'kilgan barg qoldiqlarini to'plab yoqib yuborishadi, lekin buni esa yaxshi organik o'g'itga aylantirishi mumkin. Bundan tashqari, tuproq turli xil tabiiy bo'lmagan o'g'itlar ko'rinishidagi kimyoviy moddalar bilan ham zaharlanadi. Bundan tashqari pestitsidlardan ortiqcha foydalanish tuproq sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Doimiy pestitsidlar o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilishda muhim rol o'ynash bilan birga, ayni paytda tuproq unumdorligi va undagi foydali mikroorganizmlarining soni va faolligiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu kabi muammolarni o'z vaqtida anglab olishimiz va bizning tabiiy boyligimiz hisoblangan tuproq unumdorligini doimiy tartibda oshirib borishimiz kerak bo'ladi.

Xo'sh buni qanday amalga oshiramiz?

- Hosilni almashtirishni to'g'ri tashkil qilish kerak. Bu shuni anglatadiki, ekinlarni 4-5 yildan ortiq, bir joyda ekish mumkin emas. Iloji bo'lsa har yili ekinlarning urug'ini o'zgartirish kerak.

- Kimyoviy pereparadlar o'rniga. Turli xil dorivor o'simliklardan foydalanish kerak (marigolds, qichitqi o'ti, sarimsoq, cho'ponning sumkasi).

- Yerdagi dam olish. Tuproq ham dam olishi kerak, buning uchun hech bo'lmaganda bir yil ekin ekmaslikga harakat qiling. Bu vaqtda siz o'tlarni o'stirish va mulchalashni amalga oshirishingiz mumkin. Kuzda tuproqni shudgor qiling, shunda yuqori qatlam pastki qismida tushadi.

- Qadimdan tasdiqlangan organik o'g'itlardan voz kechmang kompost, kul, go'ng kabilarni o'zingizning qo'lingiz bilan ham qilishingiz mumkin.

- Kaliforniya qurtlaridan foydalanish. Taqdim etilgan qurtlar odatdagidan farq qiladi, chunki ular uzoq umr ko'rishadi va tuproqni yaxshi hazm qilishadi. Natijada samaradorlik bir necha baravar ortadi.

Tuproq holatini yaxshilashning ajoyib usuli - yashil go'ngni ekish. Bu azot, kraxmal va oqsil ko'p bo'lgan o'simliklardir. Bunda hosil yig'ishtirib olingandan so'ng siderad ekin sifatida ekiladi va yashil massa hosil (bo'yi 20-30 sm) bo'lgach surib tashlanadi.

Tabiiy landshaftlar va ekotizimlarda tuproq alohida o'rin tutadi. Bu ekotizimlarning eng muhim bo'limi bo'lib, o'simliklar uchun unumdorlik omili va hayotning eng keng tarqalgan vositasi sifatida ishlaydi. Axir, inson hayotining farovonligi, barcha biologik organizmlar kabi, tabiatning holatiga bog'liq. Hozir butun insoniyat oldida eng muhim muammo - yashash muhitining qulay holati va barqarorligini yaratish turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Abdullaev O., Toshmatov Z., O'zbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. T. Fan, 1992 .
2. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. T.Ukituvchi, 1995.
3. A.Ramazonov, S.Buriyev Tuproqshunoslik va dehqonchilik Toshkent 2018.
4. G'Yo'ldashev Meliorativ tuproqshunoslik Toshkent 2008.

-
5. S.Sidiqov, M.Faxrutdinova Tuproqshunoslik va o'simlikshunoslik asoslari Toshkent 2005.